



**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamtdjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alihanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukarram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich** – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

**JABBAROV Ulug'bek Abdurakhmanovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li** – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.

### **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (Заместитель главного редактора) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдҷановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишкуватов Валикул Турдиевич** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Хачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Атамуратов Расулжон Қадиржонович** – доктор философии педагогических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Умирзаков Баҳодир Ҳамидович** – доктор экономических наук, профессор.

**Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевиҷ** – доктор географических наук, доцент.

**Жаббаров Улугбек Абдураҳмановиҷ** – доктор философии педагогических наук (PhD).

**Ҳоджинев Расулбек Бойназар оғлы** – доктор философии (PhD) по философским наукам.

### **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

### **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – Doctor of Economic Sciences, Professor.

**Beginkulov Uzokhboy Shoimkulovich** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Farfiyev Bakhromjon Atkhamedjanovich** – Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – Doctor of Historical Sciences, Professor.

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – Doctor of Psychological Sciences, Professor.

**Muslimov Narzulla Alikhanovich** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – Doctor of Philosophical Sciences, Professor.

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – Doctor of Law Sciences, Professor.

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – Doctor of Philosophy in Law (PhD).

**Atamuratov Rasuljon Kadirkhonovich** – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – Doctor of Sociological Sciences, Professor.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich** – Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.

**Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich** – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

**Khodjiev Rasulbek Boynazar ogli** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.

*SOTSILOGIYA*

<b>Usmonova R.M.</b> O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili .....	4
---	---

*JAMIYAT VA OILA*

<b>Axunov M.M.</b> Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
<b>Yulchiyeva D.</b> Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati .....	26
<b>Davlatova H.U.</b> Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

*IJTIMOIY PEDAGOGIKA*

<b>Matkarimov A.M.</b> Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari .....	46
<b>Ummatkulova N.</b> Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
<b>Qahhorova F.Y.</b> Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari .....	60
<b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
<b>Egamberdiyeva G.B.</b> Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

*IJTIMOIY PSIXOLOGIYA*

<b>Arzikulov D.N.</b> Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
<b>Shamsiyev O‘.B.</b> Bolalar chapaqayligi xususida.....	94
<b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности .....	100
<b>Xudoyorova M.X.</b> Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati .....	109
<b>Ashurova A.N.</b> O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari .....	119
<b>Nazarova M.Y.</b> Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

**Rustamova Navbaxor Yaxshiboyevna,**

*Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish  
milliy markazi "Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi"  
kafedrasи o'qituvchisi  
e-mail: d.xojamberdiyev@digital.uz*



# OILADA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TADQIQOT ISHLARI METODIKASI MAZMUNINI TAHLIL QILISH

**Annotation.** Maqolada oilaviy kitobxonlikning pedagogik ahamiyatini o'rghanish, oilaviy kitobxonlikni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ochib berilgan. Maqolada oilalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi

**Аннотация.** В данной статье исследуется педагогическое значение семейного чтения, раскрываются результаты социологического исследования, проведенного с целью организации и развития семейного чтения. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по формированию социально-педагогической системы развития культуры семейного чтения.

**Annotation.** This article explores the pedagogical significance of family reading, revealing the results of sociological research conducted to organize and develop family reading practices. Additionally, recommendations and suggestions have been developed for establishing a socio-pedagogical system to enhance the culture of reading within families.

**Tayanch so'zlar:** *oila, mahalla, mutolaa, kitob, kitobxonlik, ota-onा, farzand, kitobxonlik madaniyati, respondent, oilaviy munosabat, pedagogika.*

**Ключевые слова:** семья, махалля, чтение, книга, культура чтения, родители, дети, семейные отношения, респонденты, педагогика.

**Keywords:** *family, community, reading, book, reading culture, parents, children, family relationships, respondents, pedagogy.*

**O'qish madaniyati**  
**- juda katta**  
**tushuncha bo'lib,**  
**u kitobni sevishga,**  
**o'qiganda**  
**ham yozuvchi**  
**fikrlarini chuqur**  
**tushunishiga,**  
**kitob mohiyatini**  
**to'g'ri baholay**  
**olishga o'rgatadi.**  
**O'qish madaniyati**  
**bolalarga badiiy**  
**adabiyotni to'gri**  
**tushunib, undan**  
**estetik zavq**  
**olishni, ilmiy bilim**  
**beruvchi kitoblar**  
**bilan ishlash**  
**yo'lini, ma'lumot-**  
**bibliografik**  
**va axborot**  
**materiallaridan**  
**o'zini qiziqtirgan**  
**narsalarini topib**  
**olish yo'llarini**  
**o'rgatadi.**

**Kirish.** Kitobxonlik inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, diqqatini bir joyga jamlashga, sabrga o'rgatadigan mehnat turidir. Kitob o'qishga o'rgangan insonning ma'naviy dunyoqarashi keng, fikri teran bo'lib, atrofda yuz berayotgan voqeа va hodisalar mohiyatini ongli ravishda tushunishga, xulosa chiqarishga harakat qiladi. Odatda, kitobxon yoshlari o'zlariga ishongan, tashabbuskor, fidoyi, vatanparvar hamda huquqiy, iqtisodiy, g'oyaviy, siyosiy bilimlarni egallagan ma'naviyat sohibi bo'ladi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir"<sup>1</sup>, – deganlarida haq edilar. Ushbu fikrlarning davomi sifatida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni berishda ajdodlarimizning boy merosini va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatni Yangi O'zbekistonni shakllantirishning mustahkam ustuni, deb atadi.

**Maqsad va uni asoslash.** O'qish madaniyati – juda katta tushuncha bo'lib, u kitobni sevishga, o'qiganda ham yozuvchi fikrlarini chuqur tushunishiga, kitob mohiyatini to'g'ri baholay olishga o'rgatadi. O'qish madaniyati bolalarga badiiy adabiyotni to'gri tushunib, undan estetik zavq olishni, ilmiy bilim beruvchi kitoblar bilan ishslash yo'lini, ma'lumot-bibliografik va axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan narsalarini topib olish yo'llarini o'rgatadi. Bu tadbirlarning amalda bajarilishi, shubhasiz, bolalar o'qishiga, ta'slim va tarbiya jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, kutubxonashunos olim E.Yo'ldoshov jamiyatda o'qish madaniyatini rivojlantirishda aynan bolalarni yoshligidan yani oilada kitobga qiziqtirish kerakligini ilmiy asoslab bergen edi. "Yaxshi kitobni o'qish dunyoning eng dohiy odamlari suhbatida bo'lishdir", – degan edi R.Deskarter. Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi farzandlar tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning asarlari har bir o'zbek xonardonida bo'lishi shart. Biror sovg'a berishni o'yagan odamimizga Navoiy bobomiz yozgan kitoblarni hadya qilishga odatlanishimiz lozim.

Mark Tven: "Savodli bo'la turib, kitob o'qimagan kishining savodsizdan farqi yo'q" deganida, ming marotaba haqli edi. Uyida

<sup>1</sup> Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi – Shavkat Mirziyoyev.

<sup>2</sup> Yo'ldoshov E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish: o'rta maxsus o'quv yurtlari kutubxonachilik bo'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 33 bet.

chiroyli, go‘zal kutubxona, bejirim kitoblar bo‘lsa-yu, uni o‘qimasa, bo‘sh kalladan iborat bo‘lib qoladi. Jovonidagi kitoblari bilan emas, ma’naviy dunyosi bilan hurmat topish kerak.

Oilada, mahallada yoshlarni kitob o‘qishga qiziqtirish uchun avvalo, kitobxonlikning ahamiyatini tushuntirish kerak bo‘ladi. Yoshlarning qalbida kitob o‘qishga kuchli havas uyg‘otish zarur. Qanday qilib? Shu o‘rinda mutaxassislar oldida bir qancha vazifalar paydo bo‘ladi:

- kitobxonlar qiziqishlarini aniqlash;
- oilada kitob mutolaasini tizimli joriy etishni ta’minlash;
- mahallada kitoxon oilalar sonini ko‘paytirish va rag‘batlantirish;
- “ota-ona-bola-o“qituvchi” hamkorlik tizimini ishlab chiqish.


Oila kitobxonligi muhim pedagogik muammo bo‘lib, bu borada ota-onaning vazifasi farzandining faqat o‘qiyotgan asarining g‘oyaviy mazmunini tushunish va uni anglab olish bilan chegaralanmay, bu orqali ularni o‘z nuqtayi nazariga ega, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy shakllangan fuqarolar bo‘lib yetishishga erishishdan ham iboratdir. Oilada bolalar kitobxonligini shakllantirish muhim pedagogik muammo bo‘lib, shaxs ma’naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida assosiy vositalardan biri hisoblanadi

**Ilmiy muammoning tavsiyi va yechimi.** Jamiyatimizda ma’naviyati yuqori bo‘lgan qatlarni shakllantirish usullarini kitob va kitobxonlik vositasida ishlab chiqish maqsadida yana bir tadqiqot o‘tkazdir. Tadqiqot jarayonida xalqaro tajriba, turli tadqiqotlarning natijalari o‘rganildi. Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilayotgan yangi darsliklar va ular bilan ishlashdagi o‘ziga xosliklar ham hisobga olindi. Ota-onalar va o‘qituvchilar ta’lim jarayonida va o‘zaro hamkorlik mobaynida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga nazar tashlanib, ularning xususiyati va yechimlariga e’tibor qaratildi. Tayyorlangan maqola, broshyura va qo‘llanmada shu kabi masalalar diqqat markazida bo‘ldi.

Tadqiqot doirasida sotsiologik savoloma Toshkent shahri, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarda ota-onalar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini orasida so‘rov nomada o‘tkazilib, natijalari tahlil qilindi. 2023-yilning sentyabr-noyabr oylarida o‘tkazilgan ushbu so‘rovda jami 222 nafar respondent qatnashdi.

O‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomada ham bu kabi jihatlarga e’tibor qaratildi. Unda qatnashgan ota-onalarning 34 foizidan ko‘prog‘i oliy, 44 foizdan ko‘prog‘i o‘rta-maxsus, 21 foizi o‘rta ma’lumotga ega. Respondent boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mehnat stoji esa quyidagicha:

*Oila kitobxonligi  
muhim pedagogik  
muammo bo‘lib,  
bu borada ota-  
onaning vazifasi  
farzandining  
faqat o‘qiyotgan  
asarining g‘oyaviy  
mazmunini  
tushunish va uni  
anglab olish bilan  
chegaralanmay, bu  
orgali ularni o‘z  
nuqtayi nazariga  
ega, mustaqil  
fikrlaydigan,  
ma’naviy  
shakllangan  
fuqarolar bo‘lib  
yetishishga  
erishishdan ham  
iboratdir.*



**Respondentlarning  
72 foizi farzandi  
oliy ma'lumotli  
bo'lishini,  
18 foizi bola  
qiziqqan sohani  
o'zi tanlashini,  
5 foizi kasb-hunar  
egallashini, 3 foizi  
savdo sohasida  
ishlashini, 1 foizi  
esa olyi ma'lumotli  
bo'lishini, lekin  
bu jarayonda  
o'z yo'lini o'z  
tanlashini  
xohlashini  
bildirgan.**

**1-rasm. So'rovnoma qatnashgan o'qituvchilarining ish stoji  
(% hisobida)**

Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Respondentlarning 72 foizi farzandi olyi ma'lumotli bo'lishini, 18 foizi bola qiziqqan sohani o'zi tanlashini, 5 foizi kasb-hunar egallashini, 3 foizi savdo sohasida ishlashini, 1 foizi esa olyi ma'lumotli bo'lishini, lekin bu jarayonda o'z yo'lini o'z tanlashini xohlashini bildirgan. Demak, ota-onalarning ko'pchiligi farzandi olyi ma'lumotli bo'lishini istaydi. Ular orasida kasb-hunar tanlash masalasida ixtiyorni farzandining o'ziga topshiradiganlar ham birmuncha ko'p.

Ota-onalarga farzandining ta'limi bilan bog'liq bir qancha savollar bilan murojaat qilindi. Ularning umumiyligi quyidagicha ko'rinish oldi:

**Farzandingiz bilan birga (ta'lim uchun) kuniga necha soat shug'ullanasisiz?**

Bu savolga respondentlarning 47 foizi B javobni, 30 foizi C javobni, 13 foizi A javobni, 9 foizi D javobni belgilagan. Demak, so'ralganlar orasida farzandi bilan ta'limiy maqsadlarda 1 soat davomida shug'ullanadiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. 30 foiz odam ikki soat atrofida shug'ullansa, 13 foizi bu jarayonga yarim soat vaqt ajratadi. Berilgan miqdordan farqli vaqt davomida shug'ullanadiganlar D javobga o'z variantlarini belgilashgan. O'z variantini taqdim etganlar 9 foizni tashkil etgan. Ular orasida "2-3 soatdan ko'p", "darsi tugaguncha", "ba'zida ikki soatdan ham ko'p", "bo'sh vaqtimda", "har xil" kabi variantlar uchraydi.

**Agar farzandingiz bilan shug'ullana olmayotgan bo'lsangiz,  
bunga nima sabab?**

Ushbu savolga javob beruvchilarning 59 foizi C javobni, 30 foizi B javobni, 5 foizi A javobni belgilagan. Qolgan 5 foiz respondent esa o‘z variantini ko‘rsatgan. Ular ichida “har kuni vaqt ajratishga harakat qilaman”, “shug‘ullanaman”, “darslariga uncha tushunmaslik” kabi javoblar bor.

### **Farzandingiz bilan birga uy vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganmisiz?**

Bu savolga ota-onalarning 39 foizi C javobni, 37 foizi A javobni, 24 foizi B javobni tanlagan. Demak, farzandiga uy vazifalarini bajarishda ko‘maklashadigan aksariyat ota-onalar turli darajadagi qiyinchiliklarga uchraydi. Bular darslarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, to‘g‘ri metodikani tanlay bilmaslik, bola psixologiyasini tushunmaslik, oilaviy muhit bilan bog‘liq va boshqa muammolar bo‘lishi mumkin.

### **Farzandingizning o‘qituvchisidan uy vazifalari bo‘yicha yordam so‘raganmisiz?**

Bu savolga 57 foiz respondent “Ha” deb javob bergan bo‘lsa, 43 foizi o‘qituvchidan yordam olmasligini bildirgan. Demak, o‘qituvchi bu yo‘nalish bo‘yicha ham ota-onalar bilan ishslash mahoratiga ega bo‘lishi zarur.

### **Farzandingiz uyda o‘zi xohlab, qiziqib dars tayyorlaydimi yosizning nazoratingiz ostidagina shug‘ullanadimi?**

Bu savolga ota-onalarning 56 foizi A javobni, 35 foizi C javobni, 9 foizi B javobni belgilagan. 1 foiz respondent esa birdan ortiq javobni tanlagan. Natijalar bolalar ta’limida ota-onalarning nazorati baribir zarurligini ko‘rsatyapti. Albatta, nazorat bolani majburlashga, oqibatda esa o‘qishdan bezdirishga olib bormasligi kerak.

### **Farzandingiz mакtabga borishni xohlamagan paytlar bo‘lganmi, bunday holatda qanday yo‘l tutasiz?**

Bu savolda eng ko‘p A javob tanlangan – 57 foiz. Bundan tashqari, C – 19 foiz, B – 18 foiz. 6 foiz respondent esa o‘z variantini kiritgan. Ota-onalarning 57 foizi bunday muammoga duch kelmagan bo‘lsa, qolgan 43 foiz ota-onalarning masalada turli darajadagi qiyinchiliklarga uchragan. Demak, bu borada ham ota-onalarga kerakli tavsiya va yo‘l-yo‘riqlar berish, tajribalar bilan o‘rtoqlashish zarur.

### **Farzandingiz biror darsni o‘zlashtirishga qiynalsa, qanday yo‘l tutasiz ?**

Ota-onalarning 38 foizi A javobni, 22 foizi C javobni, 22 foizi D javobni, 17 foizi B javobni belgilagan. 1 foiz respondent esa bir nechta javobni tanlagan. Umumiy hisobda 60 foiz yordam o‘qituvchidan olinishi ko‘rsatilyapti. Mustaqil ravishda qo‘sishma ma’lumot izlab, kerakli

**Farzandiga  
uy vazifalarini  
bajarishda  
ko‘maklashadigan  
aksariyat ota-  
onalar turli  
darajadagi  
qiyinchiliklarga  
uchraydi.  
Bular darslarni  
o‘zlashtirishdagi  
qiyinchiliklar,  
to‘g‘ri  
metodikani tanlay  
bilmaslik, bola  
psixologiyasini  
tushunmaslik,  
oilaviy muhit bilan  
bog‘liq va boshqa  
muammolar  
bo‘lishi mumkin.**


yechimni o‘zi topadigan ota-onalar ham oz emas – 17 foiz. Demak, turli fanlar bo‘yicha ommabop metodik qo‘llanmalar chop etish, qo‘shimcha ma’lumotlar, tushuntirishlar, topshiriqlarning yechimlarini turli nashrlar va internet saytlarda berib borish, ulardan foydalanishni ko‘pchilikka imkonli va oson qilish bu boradagi muammolar sezilarli darajada kamayishiga xizmat qiladi.

### **Farzandingiz uyda dars tayyorlashni istamasa, qanday yo‘l tutasiz?**

Bu savolga javob berishda respondentlarning 69 foizi C variantni, 12 foizi D variantni, 9 foizi A variantni belgilagan. 9 foiz ota-onas esa E variantga o‘z fikrini yozib qoldirgan. B variantni bor-yo‘g‘i 2 foiz respondent belgilagan. Demak, savoldagi vaziyatga ota-onalar asosan mustaqil yechim izlaydi. Ular orasida dars tayyorlashni istamagan farzandini jazolaydiganlar ham oz bo‘lsa-da, bor. Shu kabi holatlarda ota-onalarga audio, video, kitob, qo‘llanma va maqola ko‘rinishidagi tavsiyalar yordamchi bo‘lishi mumkin.

### **Farzandingiz qaysi fanlarga ko‘proq qiziqadi?**

Bu savolga javob berishda so‘rovnomaga qatnashchilarining 33 foizi matematika, 20 foizi ona tili va o‘qish savodxonligi, 17 foizi ingliz tili, 13 foizi tasviriy san’at, 8 foizi rus tili, 3 foizi tabiiy fanlar (biologiya, zoologiya, kimyo, fizika kabilalar), 2 foizi informatika, 2 foizi jismoniy tarbiya, 1 foizi hamma fanlar, 1 foizi musiqa, 1 foizdan kamroq qismi tarix fanini ko‘rsatgan. Bu ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar matematika, ona tili va o‘qish savodxonligi, ingliz tili, rus tili va tabiiy fanlarga ko‘proq qiziqadi. Bu quyidagi diagrammada yanada yaqqolroq ko‘rinadi:



**2-rasm. Farzandingizga qaysi fanlarni ko‘proq o‘qishini maslahat berasiz? savoliga javoblar (% hisobida)**

Bu savolga javob bergan ota-onalarning 25 foizi farzandi o‘zi yoqtirgan fanlarni ko‘proq o‘qishi mumkinligini, bu jarayonga aralashmasligi bildirgan. Qolgan 13 foiz matematikani, 9 foiz ingliz tilini, 7 foiz rus tilini, 9 foiz ona tili va o‘qish savodxonligini, 32 foiz hamma fanlarni, 2 foiz informatikani, 2 foiz tabiiy fanlarni, 1 foizga yetmagan qismi tarixni ko‘proq o‘qishni maslahat berishini aytgan. Yuqoridagi savolda bolalar jismoniy tarbiya, tasviriy san’at, musiqa kabi fanlarga ham qiziqishi aks etgan edi. Ammo ushbu savolga berilgan javoblardan ota-onalar bu fanlar bilan ko‘proq shug‘ullanishni farzandlariga tavsiya etmasligi ayon bo‘ldi. Demak, ota-onalar bolasining erkin tanlovi, matematika, chet tillari va ona tiliga ko‘proq e’tibor qaratadi. Umumiy hisobda hamma fanlarni yaxshi o‘qishni tavsiya qiladiganlar ulushi yuqori.

### **Farzandingiz uchun qaysi pulli xizmatlardan foydalangansiz yoki foydalanmoqchisiz?**

Bu savolga javob berganlarning 48 foizi A variantni, 28 foizi C variantni, 8 foizi B variantni, 4 foizi E variantni, 1 foizi D variantni tanlagan bo‘lsa, 6 foizi bir necha variantni belgilagan. Respondentlarning 6 foizi “Pulli xizmatlardan foydalanish shart emas” degan variantni ko‘rsatgan.

Demak, ota-onalar farzandining ta’limi uchun asosan fanlar bo‘yicha repetitor xizmati va chet tillar bo‘yicha pulli xizmatlardan foydalanadi. Kam bo‘lsa-da, sport-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, kasb-hunarga o‘qitish va musiqiy ta’lim uchun haq to‘laydiganlar ham bor. So‘ralganlar orasida turli ijtimoiy qatlama vakillari mavjudligi, ularning moliyaviy imkoniyatlari turfa xil ekanini hisobga olsak, farzandi ta’limi uchun ko‘pchilik pul sarflagan. Bundan ota-onalar “Eng yaxshi sarmoya - ta’limga kiritilgan sarmoya” tushunchasiga tobora ko‘proq ega bo‘lib borayotganini anglash mumkin.

### **Bola maktabda yaxshi o‘qishida ota-onaning o‘rnini qay darajada deb o‘ylaysiz?**

So‘nggi savolga javob berishda ota-onalarning 88 foizi A variantni, 5 foizi B variantni, 4 foizi E variantni, 2 foizi C variantni, qolgan 1 foizi esa bir necha variantni tanlagan. D variantni hech kim belgilamagan.

Ko‘rinib turibdiki, ota-onalar bola yaxshi ta’lim olishida o‘zlarining o‘rnini katta ekanini yaxshi anglaydi. Lekin bu borada ota-onaning o‘rnini o‘rtacha yoki juda muhim emas deb hisoblaydiganlar ham oz bo‘lsa-da, bor.

Ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma dan shunday umumiy xulosaga kelish mumkin: ular farzandining ta’limiga befarq emas,

*Ota-onalar  
farzandining  
ta’limi uchun  
asosan fanlar  
bo‘yicha repetitor  
xizmati va chet  
tillar bo‘yicha  
pulli xizmatlardan  
foydalanadi. Kam  
bo‘lsa-da, sport-  
sog‘lomlashtirish  
mashg‘ulotlari,  
kasb-hunarga  
o‘qitish va musiqiy  
ta’lim uchun haq  
to‘laydiganlar ham  
bor.*

iloji boricha ta'limda ishtirok etishga, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni yechishga harakat qiladi. Ularga zarur tavsiyalar berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ta'limdagi ishtirokini rag'batlantirish, bu bo'yicha motivatsiya berish muhimdir.

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'rtaida o'tkazilgan so'rov nomasi** ham ko'plab masalalarga oydinlik kiritib, bir qancha yo'naliishlarda xulosalar qilishga asos bo'ldi.

Ota-onalarning ta'limda qay tarzda ishtirok etishi bo'yicha so'rovga javob bergen boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 50 foizi har bir sinf ota-onalari uchun alohida guruhlar tashkil qilingani, 23 foizi ota-onalari kengashi orqali, 18 foizi foizi yakka tartibda, bevosita o'qituvchiga bog'lanishini aytgan. Ta'limda bundan boshqa shaklda qatnashadigan ota-onalari ham oz bo'lsa-da bor. Demak, ota-onalari maktab ta'limida sinflar uchun tashkil etilgan guruhlar orqali ishtirok etadi. Bir necha javobni belgilagan respondentlar, asosan, har bir sinf ota-onalari uchun alohida guruhlar tashkil qilingani bevosita o'qituvchiga bog'lanishini bildirgan. Demak, ota-onalari kengashi va bevosita o'qituvchiga bog'lanish orqali ta'lim jarayonida qatnashadigan ota-onalari ham anchagina.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bir necha savollar bilan murojaat qilindi va so'rov bo'yicha quyidagicha natija va xulosalar olindi:

**Oxirgi ikki yilda ota-ona bilan hamkorlikning qanday turidan foydalandingiz? (Agar birdan ortiq usuldan foydalangan bo'lsangiz, har birini ko'rsatishingiz mumkin.)**

Bu savolga respondentlarning 37 foizi B javobni, 30 foizi A javobni, 6 foizi E javobni, 3 foizi C javobni, 1 foizi D javobni belgilagan. Qolgan 23 foiz o'qituvchi bir necha variantni tanlagan. Bir necha variantni tanlaganlar ichida A, B, C, D javoblarni ko'rsatganlar ko'p. Demak, o'qituvchilarining aksariyati ota-onalari bilan ota-onalari majlislarda ko'rishib, fikr almashadi.

**O'quvchilarining ota-onalari siz yoki maktab uyuştiradigan tadbirlerda asosan qay shaklda ishtirok etadi?**

Yuqoridagi savolga javob berishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 69 foizi A variantni, 12 foizi B variantni, 6 foizi C variantni, 3 foizi D variantni, yana 3 foizi E tanlagan. 6 foiz respondent esa bir necha variantni belgilagan. Bir necha javobni tanlagan o'qituvchilar A, B, C variantlarni ko'rsatgan. Demak, ota-onalari maktabda o'tkaziladigan tadbirlerda asosan mehmon sifatida qatnashadi. Tadbirning bevosita ishtirokchisi bo'ladigan ota-onalari soni ham ancha-muncha.

**Ta'lim jarayonida qatnashadigan, farzandi ta'limiga befarq bo'lmagan ota-onalarning farzandlari fanlarni o'zlashtirishda boshqa o'quvchilardan farqlanadimi?**

***Ota-onalari maktab ta'limida sinflar uchun tashkil etilgan guruhlar orqali ishtirok etadi. Bir necha javobni belgilagan respondentlar, asosan, har bir sinf ota-onalari uchun alohida guruhlar tashkil qilingani bevosita o'qituvchiga bog'lanishini bildirgan.***

Bu savolga respondentlarning 83 foizi A variantni, 9 foizi B variantni, 7 foizi D variantni belgilagan. Bir necha javobni ko‘rsatganlar 2 foiz. Hech bir o‘qituvchi C variantni tanlamagan. Javoblardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonida qatnashadigan, farzandi ta’limiga befarq bo‘lmagan ota-onalarning farzandlari fanlarni o‘zlashtirishda boshqa o‘quvchilardan ilg‘orroq, bilimdonroq. Bu ota-onaning ta’limda qatnashishi o‘ta muhim ekanini tasdiqlaydi.

**Ota-onaning ta’lim darajasi (oliy, o‘rta maxsus yoki o‘rta ma’lumotli ekani) farzandi ta’limiga ta’sir qiladi deb hisoblaysizmi?**

Yuqoridagi savolga javob berishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 66 foizi A variantni, 22 foizi B variantni, 11 foizi C variantni belgilagan. Demak, o‘qituvchilarning fikricha, ota-onaning ta’lim darajasi farzand ta’limiga ta’sir qiluvchi omillardan biridir.

**O‘quvchining moddiy jihatdan yaxshi ta’minlangani o‘zlashtirish darajasiga qay darajada ta’sir qiladi?**

Bu savolga javob bergen boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 48 foizi E variantni, 22 foizi A variantni, 5 foizi C variantni, 5 foizi B variantni, 3 foizi D variantni tanlagen. 18 foiz respondent esa bir necha javobni belgilagan. Demak, ko‘pchilik ustozlarning fikricha, o‘quvchining moddiy jihatdan yaxshi ta’minlangani uning o‘zlashtirish darajasiga qay darajada ta’sir qilishi oiladagi tarbiyaga bog‘liq. Moddiy ta’minlanganlik ijobjiy ta’sir qiladi degan fikrdagi o‘qituvchilar ham nisbatan ko‘proq.

**Oilaviy muhit ta’lim sifatiga qanday ta’sir qiladi deb hisoblaysiz?**

Bu savol –yuqoridagi savolning mantiqiy davomi. Unga javob berishda so‘ralganlarning 96 foizi A variantni, 3 foizi C variantni belgilagan. B variantni esa 1 foiz respondent tanlagen, xolos. Demak, o‘qituvchilarning aksariyati oilaviy muhit ta’lim sifatiga katta ta’sir qiladi degan fikrda.

**O‘qituvchi va oila (ota-on) hamkorligi ta’limda sezilarli samara beradi deb hisoblaysizmi?**

Ushbu savolda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 89 foizi A variantni, 8 foizi B, 3 foizi C javobni javobni belgilagan. Demak, o‘qituvchilarning aksariyati oila, ya’ni ota-on bilan hamkorlikni ta’limda sezilarli samara beradi deb hisoblaydi. Hamkorlik ta’limga unchalik ta’sir qilmaydi deb hisoblaydiganlar oz bo‘lsa-da, bor.

**O‘qishida muammosi bor o‘quvchilarning ota-onasi bilan maslahatlashasizmi?**

Bu so‘rovga 94 foiz respondent “Ha” deb javob bergen, 6 foizi esa “Yo‘q” javobini tanlagen. Demak, o‘qituvchilar o‘qishida muammosi bor bolalarining ota-onasi bilan maslahatlashishni ma’qul ko‘radi.

*Javoblardan yaqqol  
ko‘rinib turibdiki,  
ta’lim jarayonida  
qatnashadigan,  
farzandi ta’limiga  
befarq bo‘lmagan  
ota-onalarning  
farzandlari  
fanlarni  
o‘zlashtirishda  
boshqa  
o‘quvchilardan  
ilg‘orroq,  
bilimdonroq.  
Bu ota-onaning  
ta’limda  
qatnashishi o‘ta  
muhim ekanini  
tasdiqlaydi.*

## Fanzandi ta'limida muammo bor ota-onalar bu holatni qanday qabul qiladi?

Bu savol – yuqoridagi savolning mantiqiy davomi. Unga javob berganlarning 46 foizi A variantni, 30 foizi C variantni, 21 foizi B variantni tanlagan. 3 foiz esa bir necha javobni – B va C ni belgilagan. D javobga o‘z fikrini yozib qoldirganlar esa yo‘q. Demak, ko‘pchilik ota-onalar farzandining ta’limidagi muammolarni to‘g‘ri qabul qiladi va o‘qituvchi ota-onsa bilan bu borada hamkorlik qilishi imkoniy yaxshi. Biroq ta’limida muammo bor o‘quvchilarning ota-onalari bilan muloqot o‘rnatishda ko‘pchilik o‘qituvchilar qiyinchilik va tushunmovchiliklarga uchrash ham ko‘p kuzatiladi. B va C javoblarning umumiy ulushi 50 foizdan balandligi bu fikrimizni isbotlaydi. Bu holatda qanday yo‘l tutish bo‘yicha kerakli ko‘rsatma va tavsiyalar, metodik yordam berish maqsadga muvofiq.

Ota-onalar farzandlarining bilim olishida o‘qituvchilardan erishib bo‘maydigan natijalar kutadi. O‘qituvchilar deyarli haftada bir kunni ota-onalardan kelgan xatlar, elektron pochtalarni o‘qishga sarflaydi. Ortiqcha yuklamalar bilan ishslash esa oxir-oqibatda o‘qitish sifatiga va o‘qituvchilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi<sup>3</sup>.

## Ota-onalar bilan hamkorlikda ishslashda qaysi muammoga ko‘proq yo‘liqasiz?

Bu savolga javob berishda o‘qituvchilarning 36 foizi A, 27 foizi D, 24 foizi B, 10 foizi C variantni tanlagan. Bir necha javobni belgilaganlar - 3 foiz. Demak, oila bilan hamkorlik masalasida o‘qituvchilarni qiyinaydigan asosiy muammo o‘quv-metodik va maxsus adabiyotlarning yo‘qligi, ota-onalarning maktab bilan aloqa o‘rnatishga qiziqmasligi va ota-onalar majlisini tashkil qilishdagi qiyinchilikladir.

## Zarur hollarda ota-onalar bilan qay tarzda tezkor aloqa o‘rnatasiz?

Bu savolda respondentlarning 67 foizi A, 15 foizi C, 7 foizi B javobni, 2 foizi E javobni, 1 foizi esa D javobni belgilagan. 8 foiz o‘qituvchi bir necha variantni ko‘rsatgan. Natijalar asosiy aloqa vositasi telefon va ijtimoiy tarmoqlar ekanini ko‘rsatyapti. Biroq yuzma-yuz ko‘rishuvlar salmog‘i ham nisbatan baland.

## Ota-onsa va oila bilan o‘zaro hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish uchun qanday metodik yordam foydaliroq deb hisoblaysiz?

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu savol javobida 44 foiz holatda A, 24 foiz holatda B, 22 foiz holatda D, 1 foiz holatda C variantni

<sup>3</sup> Why are parent-teacher relationships important? – Independent Education Today, 2019. – // Электрон манба: <https://ie-today.co.uk/comment/why-are-parent-teacher-relationships-important>.

belgilagan. Alovida holatda E javob tanlanmagan. 9 foiz o‘qituvchi bir necha javobni belgilagan. Bir necha variantlar ko‘rsatilgan javoblarni ham qo‘sib hisoblaydigan bo‘lsak, respondentlar oila bilan hamkorlikni rivojlantirishda asosan hamkasblar bilan tajriba almashish, seminar va ma’ruzalar, kitob va qo‘llanmalardan o‘qib-o‘rganish foyda beradi degan fikrda.

### **O‘quvchilaringizning ota-onalari maktabdagagi ta’lim jarayonida qay darajada qatnashishini istaysiz?**

So‘nggi savolga javob berishda so‘ralganlarning 30 foizi D, 22 foizi A, 22 foizi C, 18 foizi B variantni tanlagen. Bir necha variantni tanlaganlar - 8 foiz. E’tiborli jihat, o‘qituvchilarning nisbatan ko‘pchilik qismi ota-onalar ta’lim jarayonida bevosita qatnashishi tarafdoi emas. Ular muhimmi natija deb hisoblashadi – ota-onalar “telefon va ijtimoiy tarmoqlar orqali farzandining ta’lim jarayonidan xabardor bo‘lib, kerakli chora-tadbirlarni ko‘rishsa yetadi”.

Yuqorida so‘rovnoma savollari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan hamkorlik qilishda turli usul va vositalardan foydalanishi, bu borada ba’zi muammo va qiyinchiliklarga ham duch kelishini ko‘rsatdi. Aksariyat o‘qituvchilar o‘quvchi yaxshi ta’lim olishida ota-onaning o‘rnini yuqori baholayapti va oila tarbiyasi muhimligini qayd etyapti. Demak, mакtab va oila hamkorligini kuchaytirish, ota-onalarning ta’limga, ta’lim jarayoniga e’tiborini oshirish o‘quvchilarning bilim darajasi balandlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, bugungi kunda jamiyatda kitobning ma’naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqeyi hamda ahamiyatini saqlash va hatto tiklashga ehtiyoj sezilayapti. Avvalo, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyondalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish lozim. Bundan tashqari, yosh avlodning kitobga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish kerak.

#### **Taklif va tavsiyalar:**

- oilalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini samaradorlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan asosida isbotlandi;

- mutolaa asabni tinchlantiradi. Kitob o‘qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o‘qish asabiyashishga barham beradi;

*Xulosa o‘rnida  
shuni aytib o‘tish  
lozimki, bugungi  
kunda jamiyatda  
kitobning  
ma’naviy hamda  
axloqiy ozuqa,  
madaniyat va til  
ravnaqi uchun  
asosiy manba,  
avlodlardan-  
avlodlarga o‘tib  
kelayotgan  
intellektual meros  
sifatida mavqeyi  
hamda ahamiyatini  
saqlash va hatto  
tiklashga ehtiyoj  
sezilayapti.*

– kitob o‘qish uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi. Xotirjam bo‘lish va uqlashga yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o‘qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg‘onish kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o‘qish esa aksincha ta’sir ko‘rsatadi – miya uqlash vaqtini bo‘lganligini tushunadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. – Toshkent: “Adolat” milliy huquqiy markazi, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi. 2011-yil, 13-aprel.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish tizimini rivojlantirish, kitob mutoolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son qarori.
7. G‘aniyeva D.A. “Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli”. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. G‘anieva D.A., Ratner R.I. “Ta’lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish”. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2013.
9. G‘anieva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni a’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning roli. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2017. – 440 b.
10. Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT  
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ  
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
электронный научный журнал  
*electronic scientific journal*

**1/2025**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U., E.Sultonov**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент, Олмазор тумани, Чимбай кўчаси, 8-уй.